



Xalq so'zi

2023-YIL — INSONGA E'TIBOR VA SIFATLI TA'LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2023-yil 7-noyabr, № 236 (8579)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTONDA IQTISODIY HAMKORLIK TASHKILOTINING NAVBATDAGI SAMMITI BO'LIB O'TADI

8-9-noyabr kunlari Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) o'n oltinchi sammiti bo'lib o'tadi.

Tadbirda Ozarbayjon, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston va Turkiyaning davlat va hukumat rahbarlari ishtirok etishi kutilmoqda.

Kun tartibiga muvofiq, IHT doirasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiyaviy va gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish hamda ushbu ko'p tomonlama tuzilma faoliyatini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Sammit davrii doirasida O'zbekiston yetakchisi ikki tomonlama qator uchrashuvlar o'tkazadi.

Ta'kidlash joizki, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga 1985-yilda asos solingan, uning doimiy faoliyat yurituvchi kotibiyati Tehron shahrida joylashgan.

O'zbekiston Respublikasi 1992-yildan boshlab IHT a'zosi.

O'Z.A.

IHTning TOSHKENT SAMMITI

keng mintaqaga tegishli muammolarni hal qilishda umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun yangi maydon



Tarixda ilk marotaba Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) sammiti O'zbekiston poytaxtida bo'lib o'tadi.

Mamlakatimiz 1992-yil noyabr oyidan buyon mazkur tashkilotga a'zo bo'lsa-da, mustaqil O'zbekiston va ushbu birlashma tarixida ilk bor mamlakatimizda IHT doirasidagi ko'p tomonlama sammit o'tkazilmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti 1985-yilda Tehron (Eron) tashkil topgan mintaqaviy davlatlararo tuzilma hisoblanadi.

IHTning o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy aloqalarni va transport-kommunikatsiya sohasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha maqsad va vazifalari O'zbekiston manfaatlariga to'la mos keladi.

Hozirgi kunda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston a'zo.

1995-yildan boshlab IHT BMT va Islom hamkorlik tashkilotida kuzatuvchi maqomiga ega. Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti faoliyatini muvofiqlashtirish va monitoringni tashkilotning bosh kotibi amalga oshiradi. U IHTga a'zo davlatlar Tashqi ishlar vazirlari kengashi tomonidan uch yil muddatga saylanadi va tayinlanadi.

2022-yilda O'zbekiston ilk bor Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga raislik qildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 28-noyabr kuni Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan IHT 15-sammitida so'zlagan nutqida savdo, sarmoya, transport va "yashil" iqtisodiyot sohalarida hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha qator takliflarni ilgari surdi. "500 milliondan ortiq aholi yashaydigan, ulkan bozorga ega bo'lgan mamlakatlarimizning savdo va investitsiya sohalaridagi katta imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarur", dedi davlatimiz rahbari mazkur sammitdagi nutqida.

Prezident raislikni o'z zimmasiga olar ekan, O'zbekiston IHT doirasidagi har tomonlama munosabatlarni rivojlantirish tarafdori ekanini ta'kidladi.



O'ZBEKISTON PREZIDENTINING XALQPARVAR SIYOSATI DUNYO E'TIBORIDA

O'zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev o'ta pragmatik, o'z dunyoqarashiga ega, gapdan ko'ra ishni ma'qul ko'radigan amaliyotchi sifatida siyosat olib borayotgani keyingi paytlarda xalqaro ekspert doiralarda, xorijiy ommaviy axborot vositalarida tez-tez e'tirof etilmoqda. Davlatimiz rahbari O'zbekistonning o'tish davridan zo'riqlashsiz chiqib olishini yengillashtirgan, ochiq eshiklar siyosatini yuritayotgan, bozor iqtisodiyoti va demokratik tizim sari olib boruvchi yo'lni izchil qo'llab-quvvatlayotgan yetakchi sifatida ta'riflanmoqda.

Yaqinda Vengriyaning yetakchi "Madyar Nemzet" gazetasida "O'zbekiston so'nggi yillarda shunday rivojlanmoqda" sarlavhali tahliliy maqola chop etildi. Unda Shavkat Mirziyoyev Prezident sifatida ish boshlagach, O'zbekiston amalga oshirilayotgan islohotlari bilan mintaqada lokomotivga aylangani ta'kidlangan. Bu bejiz emas, deyiladi maqolada. Zotan, O'zbekiston rahbarining tashabbuslari tufayli chegaralarning ochilishi, delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlarining faollashuvi, iqtisodiy hamda o'zaro qardoshlik rishtalarining mustahkamlanishi, aytish mumkinki, bugun xalqaro kuzatuvchiyu ekspertlar katta e'tibor qaratayotgan mintaq integratsiyasini jadallashtirdi.

Nuqtai nazar

Bosh mezon — ochiqlik, o'zaro hurmat, tinchliksevarlik

Shavkat Mirziyoyev qo'shni davlatlar bilan munosabatda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish borasida qator choralar ko'rdi, shu maqsadda mintaqa davlatlari rahbarlari bilan ko'plab uchrashuvlar uyushtirdi. 2016-yildan boshlab O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan aloqalari yangicha tus oldi. Dadil tashabbuslar ortidan boshlangan jarayonlar mamlakatning jahon maydonidagi nufuzini sezilarli darajada oshirdi. Ushbu missiya natijasida mintaqada tinchlik saqlanib turibdi. Buni o'tgan hafta yurtimizda mehmon bo'lgan Fransiya Prezidenti ham e'tirof etdi. "Hurmatli Prezident, ochiq

aytmoqchiman, siz yetti yildan beri ochiq siyosat olib bormoqdasiz. Bu, mintaqani tinchlantirish va barqarorlashtirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish siyosatidir. Biz bu siyosatni qo'llab-quvvatlamochimiz va uni amalga oshirishda sizga yordam bermoqchimiz". Yuksak minbarlardan bildirilayotgan bunday e'tirof va e'tiborni biz bugun har qadamda kuzatyapmiz va bu har birimizga g'urur bag'ishlamqda. O'zbekiston tashqi siyosatidagi jonlanish jiddiy, yangicha, ilg'or harakat sifatida namoyon bo'ldi. Aslida, tinchlik va hamjihatliksiz bunga erishib bo'lmaydi. Shu sababli mamlakatning ichki va tashqi siyosatida asosiy hamda bosh omil sifatida tinchliksevarlik tanlangan. Zero, o'lkamizda milliy mustaqillik g'oyasi millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglik

tamoyiliga tayangan. Shu ma'noda, O'zbekiston rahbariyati jahon hamjamiyati e'tiboriga mamlakat tashqi siyosatiga singdirilgan mantiqiy konseptualashuv mohiyatini yetkaza oldi. Endilikda mamlakat ichillik bilan va rejali ravishda mintaqada do'stona, ko'p tomonlama ishonchga asoslangan muhit yaratish ustida ish olib bormoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston tashqi siyosat mahkamasi dunyoda yuz berayotgan u yoki bu masala bo'yicha sergaklik va xolislik bilan rasmiy munosabat bildirib keladi. Ushbu pozitsiyani to'g'ri anglash uchun xalqaro huquqning ijodkori hamda subyekti muayyan millat emas, balki davlat ekanini tushunish va bunga qo'shilish kerak. Bunda jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan suveren davlat tushunchasi rasmiy Toshkent

uchun muqaddas hisoblanadi. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, siyosiy yondashuvning ayni ifodasi jahon hamjamiyati tomonidan bir necha marta oshkora tan olingan. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston tashqi siyosati bo'yicha tutgan yo'li aloqador aktor davlatlarning mintaq borasidagi geosiyosiy va geoiqtisodiy rejalarini qayta ko'rib chiqishga undadi. Bunga misol tariqasida Rossiya yetovidagi YOII, Xitoyning "Bir makon, bir yo'l" va AQSHning Markaziy Osiyo bo'yicha ishlab chiqqan, yangi "S5+1" strategik loyihalarini keltirish mumkin.

Jumladan, davlatimiz rahbarining tashabbuslari mintaqadagi ba'zi qo'shnilarimizni ham o'zlari uchun an'anaviy va mutlaqo tabiiy bo'lgan o'zanga tushib olishiga yordam berdi. 2017-yilgacha O'zbekistonning

qo'shnilarga nisbatan yopiq va ba'zi hollarda qarshi siyosati Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston tashqi siyosatidagi ham iqtisodiy, ham siyosiy yo'nalishlarni turli mintaqaviy guruhlar sari burdi. 2017-yilga kelib esa ushbu dinamika o'zgardi va beshta mamlakatga potentsial jihatdan tashqi ishtirokchilar qatnashuviz mintaq siyosatini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ldi. Buni, hech shubhasiz, Shavkat Mirziyoyevning mintaq siyosatiga ijobiy ta'siri deb baholash mumkin.

Gap mintaqamiz hayoti haqida ketar ekan, mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy hayotidagi ko'hna stereotiplar haqida ham gapirish o'rinni bo'ladi. Sir emas, uzoq yillik mustabidlik va u qoldirgan "an'anaviylik" mintaq hayotini sun'iy ravishda cheklangan imkoniyatlarga qaram qilib qo'ygandi.



UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

Uning asosiy bunyodkori kimlar?

Yangi O'zbekistonni barpo etish va uchinchi Renessans poydevorini qo'yishda jamiyatning barcha guruhi, qatlami, tabaqasi va sinflari faollik ko'rsatishi hamda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirishi kerak. Negaki, jamiyatning barqaror rivoji uchun bu juda muhim.

Mushohada

Yangi O'zbekiston va uchinchi Renessans iqtisodiy poydevorini yirik hamda zamonaviy ishlab chiqarishsiz yaratib bo'lmaydi. Bu, o'z navbatida, jahonda raqobatbardosh, ulkan miqdorda aylanma mablag'larga ega aksiyadorlik jamiyatlari, ilm-fanga bevosita integratsiyalashgan ishlab chiqarish klasterlari, transmilliy kompaniyalar bo'lishini, ya'ni yirik kapitalni hamda davlat-xususiy kapital sherikligini taqozo etadi.



Ammo rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, barqaror ijtimoiy rivojlanish sotsial asosini o'rta sinf tashkil qiladi. O'rta sinfga fermerlar, yuqori daromadli o'rta va quyi bo'g'in menejerlari, tadbirkorlar, iqtisodchilar, buxgalterlar, yuqori malakali ishchilar,

xizmatchilar, jamiyatning madaniy-intellektual hayotini yaratuvchi ijodkor ziyolilar, olimlar, adiblar, san'atkorlar, professor-o'qituvchilar, pedagoglar, tibbiyot xodimlari, jurnalistlar va boshqalar kiradi.



Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

2024-YIL UCHUN DAVLAT BUDJETI LOYIHASI HAMDA HUKUMAT HISOBOTI KO'RIB CHIQILDI

Davlat budjeti — mamlakatning pul daromadlari va xarajatlari ro'yxatini o'zida ifodalovchi asosiy moliyaviy hujjat. Shu nuqtayi nazardan aytganda, keyingi yillarda byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Byudjetga oid alohida qonunning qabul qilinishi esa mamlakatimiz taraqqiyoti va har bir fuqaro hayotiga bevosita daxldor bo'lgan ushbu masalaga bugungi kunda yanada jiddiy e'tibor qaratilayotgani natijasi, deyish mumkin.

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida bo'lib o'tgan siyosiy partiyalar fraksiyalarining yig'ilishlarida "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun loyihasi hamda 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturining 2023-yil to'qqiz oyi yakuni bo'yicha bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining hisoboti ko'rib chiqildi.

Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari va tizimli vazifalar

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida taklif etilayotgan qonun loyihasining asosiy maqsadi 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetini shakllantirish va ijro etish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iboratligi ta'kidlandi.

Muhokamarlar davomida fraksiya a'zolari qonun loyihasining har bir

moddasini sinchiklab tahlil qilar ekan, partiya maqsad-vazifalaridan kelib chiqqan holda loyihani yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish yuzasidan o'z takliflarini bildirdi. Xususan, fraksiya a'zosi Adham Nazirqulov Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armalariga ajratilayotgan mablag'larning maqsadli sarflanishi, ortib qolgan mablag'ni esa boshqa xarajatlarga yo'naltirish mumkinligiga oid savolni o'rta qo'ydi. Qonun tashabbuskorlari mazkur savol yuzasidan asoslantirilgan javoblar berishdi.

Fraksiya a'zosi Ravshan Mamutov esa suv omborlari va xavf darajasi yuqori bo'lgan obyektlar uchun texnik holatni yaxshilashga tegishli mablag' ajratilayotgani, yaqinda qabul qilingan "Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunda xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan qator tadbirlar belgilangani, uning ijrosiga doir loyihada qanday chora-tadbirlar ko'zda tutilayotgani bo'yicha murojaat qildi. Mas'ul vazirlik vakillari ko'tarilgan savol yuzasidan tushuntirishlar berdi.



O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat

Aks sado

GLOBAL LOGISTIKA ZANJIRLARI VA TRANSPORT YO'LAKLARI RIVOJLANADI

Hamkor mamlakatlar bilan hamda halqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo'yicha muvozanatli, doimiy muloqot olib borish, ular bilan ikki va ko'p tomonlama uchrashuvlar o'tkazish, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida hamda turli darajadagi maslahatlashuvlarni tashkil etish O'zbekiston tashqi siyosatidagi ustuvor yo'nalishlardan biri sanaladi.

Jumladan, bugungi kunda shakllanayotgan yangi dunyo tartiboti va xalqaro institutlar tizimida o'ziga xos muhim o'rinda ega bo'lib borayotgan Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida ham O'zbekiston ko'plab tashabbuslarni ilgari surib kelmog'ga.

Joriy yilning 3-noyabr kuni Ostona shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ham Prezidentimiz tomonidan tashkilotga a'zo mamlakatlarning 160 milliondan ortiq aholisi manfaatlarini aks ettiruvchi qator takliflar ilgari surildi. Xususan, tashkilotga a'zo davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama va uzoq muddatli aloqalarni yanada kengaytirish maqsadida turli xalqlar birdamligini, ularning buyuk o'tmishi va boy madaniyatini, azaliy qadriyatlarini ifoda etadigan "Turkiy dunyo xartiyasi"ni ishlab chiqish taklif qilindi.



Ulug' siymolari yodi

XALQIMIZNING SADOQATLI FARZANDI

Mamlakatimizda uchinchi Renessans poydevorini qo'yishga qaratilgan tub islohotlar jarayonida boy milliy-madaniy qadriyatlarimizga yangicha yondashilmoqda, ko'p asrlik o'tmishimiz tarixiy adolat va milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilmoqda.

Shu jihatdan, millatimiz faxri bo'lgan buyuk shaxslar, davlat arboblari, mutafakkirlar hayoti, ularning faoliyati, mamlakatimiz taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va ma'naviy merosini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shunday insonlardan biri — shubhasiz, atqoli davlat va jamoat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov edi. Uning benazir rahbarlik sahloiyati va insoniy fazilatlari zamondoshlari xotiralarida yaqqol namoyon bo'ladi.



O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING XALQPARVAR SIYOSATI DUNYO E‘TIBORIDA



Biz koʻpchiligimiz eng yaqin strategik sherik deganda, hozirgacha Rossiya yoki Xitoy nazarda tutilishiga oʻrganib qolganmiz. Qolaversa, bunday oʻylashimizga mintaqadagi mavjud sharoit ham majbur qilardi. Shu maʼnoda, Shavkat Mirziyoyevning “Janub konsepsiyasi” bir necha asrlardan buyon oʻzgarmay kelayotgan Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy xaritasini yangi mazmun bilan boyitdi. Markaziy va Janubiy Osiyoni bir-biri bilan bogʻlaydigan, “asr loyihasi” sifatida koʻrilayotgan, Oʻzbekistondan to Pokiston sari tortiladigan Termiz — Mozorī-Sharif — Kobul — Peshovar temir yoʻli bugun mintaqā istiqbolini belgilaydigan eng dolzarb loyiha, deya baholanmoqda. Ayni shu Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalari oʻrtasidagi savdo-sotiq va qolaversa, madaniy-maʼrifiy sohalardagi aloqalarning rivoj topishini bugun koʻpchilik ekspertlar koʻhna oʻtmishning tiklanishiga qiyoslashayotir.

O‘zlikka qaytish

Umumiy maʼnoda aytganda, bugun haqli ravishda “Yangi Oʻzbekiston” deya atalayotgan mamlakatimiz iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, maʼnaviy hayotida juda teran oʻzgarishlar boʻldi. Ayniqsa, Prezidentimizning BMT minbaridan turib davlatchiligimiz tarixida oʻzbek tilida nutq soʻzlashi millatimizning qadrlari bir necha barobar koʻtardi. Yoki mamlakatimizning Turkiy davlatlar tashkilotiga (TDT) aʼzo boʻlib kirishi Oʻzbekistonning ham ijtimoiy, ham siyosiy “xususiyati” oʻzgarayotganini, davlatimiz mustabidlilik va yangi koʻrinishdagi maʼnaviy qaramliklardan chiqib, oʻzligi sari intilayotganini anglatadi.

Aslini olganda, Turkiy birlik gʻoyasi bugun paydo boʻlgan emas. Buyuk ajdodlarimiz orzularida ham turkiy xalqlarni birlashtirishni nazarda tutuvchi tushuncha mavjud boʻlgan. Lekin haqiqat shundaki, biz uzoq yillar shu hayotiy haqiqatdan qochib yashadik: oʻzimizning turkiy xalq ekanligimizni tan olmadik. Shavkat Mirziyoyev bu tarixiy haqiqatni tikladi. Nafaqat tikladi, balki tashkilotga kuch bagʻishladi, uning kelajagiga ishonch ruhini mustahkamladi. Bu aʼzo davlatlar tomonidan xolis eʼtirof etilmoqda. Ostona shahrida oʻtgan Turkiy davlatlar tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi yigʻilishida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga turkiy xalqlar oilasining birligini mustahkamlashga, turkiy mamlakatlarning manfaatlari va qarashlarini xalqaro maydonda faol ilgari surishga qoʻshgan ulkan hisssasi uchun yuksak mukofot — “Turkiy dunyoning oliy ordeni” topshirilganini ana shu eʼtirofning amaliy ifodasi, deyishimiz mumkin.

Oʻzbekiston 2019-yilda TDTga aʼzo boʻlib kirganidan buyon mamlakatimiz rahbari tomonidan turkiy davlatlar oʻrtasida doʻstlik, yaxshi qoʻshnichilik va koʻp qirrali hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan 50 dan ortiq taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Mamlakatimizning tashkilotga raisligi davrida 100 dan ziyod turli tadbirlar oʻtkazildi, amaliy hamkorlikning yangi samarali mexanizmlari yaratildi, nufuzli global va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin sheriklik aloqalari yoʻlga qoʻyildi. Tashkilotga aʼzo barcha davlat bilan oʻzaro manfaatli aloqalar izchil kengaymoqda, strategik sheriklik munosabatlari oʻrnatildi, savdo hajmlari ortmoqda, kooperatsiya kuchaymoqda. Zero, davlatimiz rahbari taʼbiri bilan aytganda, barchamizning orzu va maqsadlarimiz, intilish va harakatlارimiz uygʻun va hamohangdir. Azaldan doʻst va qardosh boʻlgan turkiy xalqlarimiz bundan keyin ham ahil va hamjihat boʻlib, yorugʻ kelajakni birgalikda bunyod etadilar.

Oʻzbekistonda boshlangan tub islohotlar mamlakatning yangi, zamonaviy rivojlanishi va modernizatsiya yoʻliga oʻtishida, davlatning ichki hamda tashqi siyosati samaradorligini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega boʻldi. Bu fikr xorijiy ekspertlar va diplomatlar qarashlarida ham oʻz aksini topdi. Chet ellik ekspertlar Prezident Shavkat Mirziyoyevning pragmatik, ochiq va konstruktiv tashqi siyosati tufayli mamlakatimizning xalqaro munosabatlarda tutgan oʻrni va ahamiyati sezilarli darajada mustahkamlanganini qayd etishmoqda. Asosiy natijalardan biri, bu — Oʻzbekiston imijining tubdan oʻzgargani. Buni Oʻzbekistonning

jahonda demokratik jamiyatga, kuchli, raqobatbardosh iqtisodiyotga, innovatsion institutlar va infratuzilmaga ega mamlakat sifatida qabul qilinayotganida koʻrishimiz mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida Prezident Shavkat Mirziyoyev Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli va jadal demokratik islohotlar bugungi kunda ortga qaytmas tus olganini, ularning asosini inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash hamda himoya qilish tashkil etishini qatʼiy taʼkidladi. Oʻz navbatida, ushbu bayonot, xorijlik kuzatuvchilarning baho berishicha, dunyo hamjamiyati, avvalo, Oʻzbekistonning tashqi siyosatdagi sheriklari va xalqaro investorlar uchun kuchli ijobiy chaqiriqdir.

Shunday qilib, Oʻzbekistonning xalqaro maydonda imiji tubdan oʻzgarishiga nima taʼsir koʻrsatdi? Avvalo, soʻz va omaviy axborot vositalari, din va eʼtiqod erkinligi, gender tenglik va millatlararo totuvlikni taʼminlashni qamrab olgan chuqur tizimli islohotlar oʻtkazish maqsadini oʻz oldiga qoʻygan Prezidentning siyosiy irodasi va qatʼiyati. 2020-yil oktabr oyida Oʻzbekiston tarixida ilk bor BMTning butun dunyodan inson huquqlarini ilgari surish va himoya qilish uchun masʼul 47 davlatni oʻz ichiga olgan Inson huquqlari boʻyicha kengashiga aʼzo boʻlib saylangani ham ana shu iroda va qatʼiyatning hosilasidir.

Oʻzbekiston Prezidenti tomonidan tasdiqlangan tashqi siyosat dasturining pragmatik va strategik jihatdan puxta oʻylanganligi mamlakatimizning ishonchli va faol tashqi siyosat olib boradigan barqaror sherik sifatidagi obroʻsini mustahkamlashga xizmat qildi. Bu tashqi siyosiy yoʻnalishning asosiy natijasi Markaziy Osiyodagi

“Prezident Shavkat Mirziyoyevning mintaq va dunyo davlatlarining umumiy muammolarni hal qilishdagi saʼy-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan hayotiy va dolzarb tashabbuslari Oʻzbekistonning xalqaro tashkilotlardagi faolligi keskin oʻsishiga hamda tutgan oʻrni mustahkamlanishiga olib keldi.”

siyosiy vaziyatning tubdan yaxshilanishi, mintaqada chinakam qoʻshnichilik ruhi shakllanishi, Oʻzbekiston va qoʻshni davlatlarning muhim mintaqaviy masalalarni hal qilish boʻyicha birgalikdagi ishlarining boshlanishi boʻldi.

Bundan tashqari, mamlakatimizning yetakchi davlatlar — Rossiya, Xitoy, AQSH, Yevropa Ittifoqi va Yevropa mamlakatlari, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, shuningdek, Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyodagi boshqa davlatlar bilan koʻp qirrali va oʻzaro manfaatli aloqalari kengaydi. Koʻp tomonlama diplomatiya ham sezilarli darajada faollashdi. Mamlakatimiz rahbariyati tashabbusi bilan oʻtkazilgan xalqaro anjumanlar jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholandi. Bu oʻrinda gap, avvalo, xalqaro transport yoʻllarini shakllantirish, Afgʻoniston muammosini hal qilish, Markaziy va Janubiy Osiyoning oʻzaro bogʻliqligini mustahkamlashga bagʻishlangan tarixiy ahamiyatga ega forumlar haqida ketmoqda.

Ilgʻor tashabbuslar, istiqbolli takliflar

Taʼkidlash joizki, keyingi bir necha yilda Oʻzbekistonning Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH) doirasidagi ishtiroki faollashdi. Mamlakatimiz MDHning tarmoqlar boʻyicha hamkorlikning 24 ta organiga qoʻshildi, 65 ta tuzilmasi faoliyatida toʻliq ishtirok etmoqda. Ushbu davrda Oʻzbekiston Prezidenti tomonidan koʻplab muhim yoʻnalishlar yuzasidan qariyb 70 ta tashabbus ilgari surildi. Ularning aksariyati Hamdoʻstlikka aʼzo mamlakattlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanib, roʻyobga chiqarildi.

MDH Oʻzbekiston uchun shunchaki muloqot, fikr almashish va qarashlarni solishtirish maydoni emas. Bu tuzilma mamlakatimiz uchun ustuvor sohalarda amaliy hamkorlik qilishning gʻoyat muhim institutidir. Hamdoʻstlikka aʼzo mamlakattlar esa yurtimizning doimiy sheriklari, qoʻshnilari va doʻstlaridir. Shu maʼnoda,

Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi Davlat rahbarlari kengashi majlisi doirasida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga doʻstlik, yaxshi qoʻshnichilik va koʻp qirrali hamkorlik munosabatlarni mustahkamlashga qoʻshgan ulkan hisssasi uchun tashkilotning oliy mukofoti — MDH Faxriy nishoni tantanali topshirilishi ham bejiz emas. Bu Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslarning eʼtirofidir. Tan olish kerak, Oʻzbekistonning tashkilotdagi tashabbuskorligi, aniq gʻoya va takliflari uning ishini jonlantirdi, soʻnib borayotgan MDH faoliyati yangi mazmun bilan boyidi. Davlatlararo munosabatlarda prinsipial jihatdan oʻziga xos sahifa ochildi, keng koʻlamli va samarali sheriklikni kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Hamdoʻstlik doirasidagi hamkorlikni faollashtirish boʻyicha “Yoʻl xaritasi” ishlab chiqildi.

2020-yilda mamlakatimiz birinchi marta MDHga raislik qildi va Hamdoʻstlik sammitini muvaffaqiyatli oʻtkazib, uning doirasida oʻnlab tashabbuslarni ilgari surdi. Mamlakatimiz hayotiga doir eng muhim voqealiklar qatorida Oʻzbekistonning Turkiy kengashiga toʻlaqonli aʼzo boʻlib kirishi, Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlish boʻyicha muzokaralarning oldinga siljishi, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi davlat maqomi olishini alohida taʼkidlash lozim. Shu bilan bir qatorda, mamlakatimiz Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisidagi bitim boʻyicha muzokaralar jarayonini yakunlamqda va “GSP+” tizimida benefitsiar davlat maqomini oldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning mintaq va dunyo davlatlarining umumiy muammolarni hal qilishdagi saʼy-harakatlarini birlashtirishga qaratilgan hayotiy va dolzarb tashabbuslari Oʻzbekistonning xalqaro tashkilotlardagi faolligi keskin oʻsishiga hamda tutgan oʻrni mustahkamlanishiga olib keldi. Shuni alohida qayd etish kerakki, Oʻzbekiston tashabbusi va taklifi bilan BMTning Orolboʻyi mintaqasi uchun inson xavfsizligi boʻyicha koʻp tomonlama sheriklik asosida trast fondi tashkil etildi, BMT Bosh Assambleyasining Markaziy Osiyoda mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, Maʼrifat va diniy bagʻrikenglik, Barqaror turizm va barqaror rivojlanish, Orolboʻyi mintaqasida ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududini yaratish boʻyicha qator muhim rezolyutsiyalari qabul qilindi.


Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy diplomatiya tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Oʻzbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar va ilgʻor texnologiyalarni jalb qilish sezilarli darajada jadallashdi. Umuman olganda, yuqorida koʻrsatilgan omillarning barchasi Oʻzbekistonning har tomonlama hamkorlikka ochiq mamlakat sifatida yangi qiyofasi shakllanishiga yoʻl ochdi. “Yangi Oʻzbekiston” tushunchasi xalqaro maydonda mustahkam joy oldi. Oʻtgan yillarda nafaqat mamlakatimizda, balki Markaziy Osiyo mintaqasida ham sezilarli oʻzgarishlar yuz berdi.

Ishonchli munosabatlar va doʻstona muloqot

Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mintaqada birlashtiruvchi kun tartibini taqdim etdi, bu mamlakatimizning barcha qoʻshni davlatlar bilan davlatlararo aloqalarini sezilarli darajada yaxshilash va mustahkamlashga imkon berdi. Birinchi navbatda, oʻtmishda qoʻshnilar bilan aloqalarni mustahkamlash uchun toʻsiqlar yaratgan mintaqaviy masalalarni konstruktiv hal qilishni boshlashdek masʼuliyatli va muhim vazifa belgilab berildi. Qoʻshni davlatlar bilan oliy darajadagi ishonchli munosabatlar va ochiq muloqot oʻrnatilib, ikki tomonlama hamda umummintaqaviy masalalarni yaxshi qoʻshnichilik, oʻzaro ishonch, bir-birining manfaatlarini hisobga olish va oqilona murosalar asosida hal qilish uchun zarur kelishuvlarga erishildi.

Birgina 2022-2023-yillarda Markaziy Osiyo yoʻnalishida 150 dan ortiq oliy va yuqori darajadagi tadbirlar amalga oshirildi. Pirovard natijada Markaziy Osiyo xalqlarining bir-biriga yaqinligi taʼminlanmoqda, bordi-keldi aloqalari koʻpaydi, savdo-sotiq munosabatlarning salmogʻi ancha ortdi.

Keyingi yillarning oʻzida mintaq mamlakatlarning oʻzaro investitsiyalari hajmi deyarli 6 baravar, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy sarmoyalar oqimi esa 45 foiz ortdi. Oʻzbekiston Prezidenti Tojikiston poystaxtida boʻlib oʻtgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvidagi nutqida aytib oʻtganidek, mintaq mamlakatlarning



umumiy ichki mahsuloti 40 foizga koʻpaydi. Tovar aylanmasi 2,5 barobaridan ziyod oshdi. Bundan tashqari, ichki mintaqaviy turizm koʻrsatkichlari deyarli 2 barobar ortdi. Oʻzbekistonning barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari strategik sheriklik darajasiga koʻtarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek, jahon siyosatshunosligida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora paydo boʻldi. Mazkur ibora mintaqamizda yaratilgan hamkorlik va oʻzaro anglashuvga ijobiy siyosiy muhitni oʻzida yaqqol aks ettiradi.

Shu oʻrinda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil qilingan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari muntazamlik kasb etgani va bugungi kungacha Ostona, Toshkent, Avaza, Choʻlponota va Dushanbeda boʻlib oʻtganini aytib oʻtish lozim. Shuningdek, Markaziy Osiyo iqtisodiy forumlari ham oʻtkazib kelinmoqda. Mintaqaviy hamkorlik haqida fikr yuritganda, chegara masalalarini hal qilish, suv-energetika resurslaridan birgalikda va oqilona foydalanish, transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish va takomillashtirish, mintaqaviy xavfsizlikni taʼminlash, shuningdek, qator ekologik muammolar boʻyicha ishlarni davom ettirish borasidagi intilishlarni aytib oʻtish mumkin.

Mazkur yoʻnalishlar Oʻzbekiston Prezidentining quyidagi masalalarni oʻz ichiga olgan mintaqaviy strategiyasidan kelib chiqadi:

birinchidan, ikki tomonlama muloqotlar mobaynida hamda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari doirasida oliy darajada erishilgan barcha kelishuvlarni amalga oshirish;

ikkinchidan, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik modelini takomillashtirish, savdo va investitsiya, sanoat kooperatsiyasi, transport, tranzit, energetika va innovatsiya sohalaridagi hamkorlik samaradorligini oshirish; uchinchidan, mintaqamiz oldida turgan zamonaviy muammolar va tahdidlarga birgalikda qarshi turish, ekologik masalalarni hal qilish, ekstremizm va terrorizm keltirib chiqaradigan transmilliy tahdidlarning oldini olish, shuningdek, Markaziy Osiyo xalqlari oʻrtasidagi millatlararo totuvlik, doʻstona va qardoshlik aloqalarini mustahkamlash.

Milliy manfaatlar ustuvorligi

Oʻzbekiston hamisha barcha masalalarni, ayniqsa, uzoq oʻn yilliklar mobaynida qoʻshni mamlakatlarda tashvish uygʻotib kelgan Afgʻonistondagi nizoning tinch yoʻli bilan hal qilinishini yoqlagan va yoqlaydi. Biz afgʻon muammosini hal etishning harbiy yoʻli yoʻq ekanini doimo taʼkidlab kelganmiz. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida bu nuqtayi nazarga koʻpchilik xayrixohlik qilmqda. Afgʻonistondan xalqaro koalitsiya qoʻshinlari olib chiqilgani ham bizning yondashuvimiz toʻgʻri ekanini koʻrsatdi. Biz Oʻzbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi, jumladan, Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi va Mudofaa doktrinasiga muvofiq etmasligi toʻgʻrisida bir necha bor bayonot berganmiz. Bundan tashqari, bugungi kunda mamlakatimiz oʻz milliy xavfsizligini taʼminlash uchun yetarli salohiyatga ega ekanani ham amaliy jihatdan oʻta muhim. Oʻzbekistonda harbiy qurilish sohasidagi islohotlar muvaffaqiyatli bormoqda, milliy

Bunday oqilona siyosat oʻz samarasini beryapti. Sharq va Gʻarb, Janub va Shimoldagi barcha davlat Oʻzbekistonga talpinmoqda. Yaqin oylar ichida Oʻzbekiston Prezidentining AQSH, Germaniya, Fransiya, Italiya kabi Gʻarb davlatlari, Rossiya va Xitoy kabi Sharqning qudratli davlatlari, Koʻrfazdagi Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar kabi baquvvat davlatlar rahbarlari bilan muloqotlar olib borgan, oʻzaro erishilgan manfaatli bitimlar dunyoning Markaziy Osiyoga munosabati ijobiy tomonga ancha oʻzgarishiga sabab boʻldi. Markaziy Osiyo davlatlari geosiyosiy nuqtayi nazardan muhim ekanligini dunyo anglab yetmoqda. Oʻzbekistoni esa haqli ravishda Markaziy Osiyoning yuragi, deyshiyapti. Zero, Markaziy Osiyoda hech bir masalani mintaqadagi asosiy mamlakat, tarixiy Turonning qoq markazida joylashgan Oʻzbekiston ishtirokisiz hal qilib boʻlmaydi. Boz ustiga, faol tashqi siyosat Oʻzbekistonning xalqaro obroʻ-eʼtiborini oshirish barobarida Markaziy Osiyoni barqaror, ulkan imkoniyatga ega jozibali mintaqaga aylantirishga xizmat qilmoqda.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
Fargʻona davlat universiteti rektori.

armiyaning harbiy-texnikaviy bazasi mustahkamlanmoqda.

Albatta, zamonaviy dunyo oʻta jadal surʼatda rivojlanmoqda. Global dunyo qurilishining arxitekturasini doimiy oʻzgarish jarayonini boshdan kechiryapti. Shubhasiz, bu muayyan tahdid va xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarmoqdaki, ularga turli yoʻllar bilan, jumladan, harbiy ittifoqlar va tashkilotlar vositasida qarshi turish mumkin. Biroq xavfsizlikka nisbatan tahdidlarga toʻqnash kelganda faqat harbiy kuch yoʻlini tanlash hamisha ham kutilgan natijani beravermaydi. Axir samaradorligi kam boʻlmagan va hatto koʻpgina holatlarda xavfsizlikka nisbatan tahdidlarga qarshi turishda lozim darajada taʼsirchan boshqa vositalar ham bor-ku. Ana shunday vositalardan biri, bu — diplomatiya. Preventiv diplomatiya usullari oʻtgan davrda oʻzining foydali ekanini koʻp bor tasdiqlagan, hozirgi paytda ham amaliy kuchini, jumladan, Afgʻonistondagi yangi vaziyatga yondashuvlarda tasdiqlamoqda. Bu yerda gap faqat ikki tomonlama diplomatiya haqida borayotgani yoʻq. Xalqaro miqyosda koʻp tomonlama darajada milliy va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan har qanday koʻrinishdagi tahdid va xavf-xatarlardan oqoh boʻlishga qaratilgan siyosiy-diplomatik mexanizmlarning butun boshli tizimi yaratilgan va u doimiy ravishda rivojlanmoqda. Masalan, Markaziy Osiyoda mintaq mamlakatlari yirik sheriklarbilan muloqotining “5+1” shaklida muvozanatlashgan mexanizmlar tizimi mavjud. Bunday platformalar Rossiya, AQSH, Yevropa Ittifoqi, XXR, Hindiston, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Koʻrfaz davlatlari bilan munosabatlarda amal qilmoqda.

Markaziy Osiyodagi jarayonlarda ishtirok etayotgan yirik davlatlarning manfaatlari turlicha boʻlib, ular baʼzan umumiy nuqtalarga ega boʻlish bilan birgalikda, ayrim hollarda oʻzaro ziddiyatli hamdir. Bu manfaatlar, qanchalik xilma-xil boʻlsa-da, ular mavjud va tarixiy, jugʻrofiy omillar hamda global tendensiyalar bilan chambarchas bogʻliq. Shubhasiz, bunday davlatlar intilishlaridagi ziddiyatlar mintaq mamlakatlari manfaatlariga javob bermaydi, chunki ular Markaziy Osiyo davlatlari oldiga baʼzan “geosiyosiy tanlov” shartini qoʻyadi va bunda bir tomonga yondashish boshqa tomon bilan munosabatlarda keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Tabiiyki, har qanday suveren davlat xalqaro maydonda tashqi kuchlarning manfaatlariga qarab emas, oʻz ehtiyojlarini hisobga olgan holda emin-erkin harakat qilishni, oʻz irodasini turli tomonlar bosimiga boʻysundirmaslikni xohlaydi. Ammo zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi “assimetrik manfaatlar” bilan bogʻliq vaziyatlardan mustasno emas. Bizning tashqi siyosatimiz ana shunday vaziyatlarning oldini olishga, milliy manfaatlar poymol boʻlishiga yoʻl qoʻymaslikka, Oʻzbekiston bilan sheriklikdan manfaatdor boʻlgan har bir tomon uchun teng huquqli, oʻzaro manfaatli munosabatlarni taʼminlashga qaratilgan. Bu maqsadga erishish vositalari sirasiga yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan muvozanatli strategik sheriklik tizimini shakllantirish, qoʻshni davlatlar bilan konstruktiv va yaxshi qoʻshnichilik munosabatlarni rivojlantirish, global darajada keskin oʻzgarishlarning keng miqyosdagi taʼsirini yumshatishga yordam beradigan barqaror mintaqaviy xavfsizlik tizimini barpo etish kabi yoʻnalishlar kiradi.



Ibrat

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga bagʻishlayman.

Baxtlilar baxtini baham koʻrsinlar, Uygʻonib olamni koʻrkam koʻrsinlar, Tinchlikda elini xurram koʻrsinlar, Sizning tilagingiz buloqdek toza, Arziydi bor dunyo olsa andoza.

Turkiy dil, turkiy til birligi uchun, Tilu dili bir el birligi uchun, Deysiz: “Birlashganlar boʻlar bir butun!” — Soʻzingiz olamga boʻldi ovoza, Arziydi bor dunyo olsa andoza.

Mayli, kim hasaddan gʻavgʻolar solar, Valekin yaxshidan yaxshilik qolar, Odamzot ashida ekankin oqlar, Kosaning tagida mudom nimkosa, Arziydi bor dunyo olsa andoza.

Ochilgan toʻsiqlar — ochilgan koʻngil, Quvonchi toʻrt taraf sochilgan koʻngil. Ey gʻanim, tan olgin, odil boʻl, odil, Qardoshlar bir-birin bagʻriga bossa, Arziydi bor dunyo olsa andoza.

Buyuk ajdodlarning matlabi — doʻstlik, Turkiy taraqqiyot maktabi — doʻstlik, Abut-Turk avlodin talabi — doʻstlik, Burgutga yarashar qanotin yozsa, Arziydi bor dunyo olsa andoza.

Ochiq siyosatning oppoq tonglari, Qadim Turkistonning yangi ranglari, Yangi Oʻzbekiston yangi bonglari, Hayratga solmoqda ochunni rosa, Arziydi bor dunyo olsa andoza.

Turon, Turkistonning qadridek yuksak, Oliy mukofotlar Sizga muborak! Har oʻzbek koʻksida koʻrmoqda, beshak, Kim doʻst, kelabersin qulochin yozsa, Sizdan ibrat olmoq mardga andoza!

Mahmud TOIR,
Oʻzbekiston xalq shoiri, senator.

11-noyabr — Oʻzbekiston kasaba uyushmalari kuni

YOSHLAR BILAN OCHIQ MULOQOT

Nukus shahrida Oʻzbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Qoraqalpogʻiston Kengashi mutasaddilari hamda yoshlar uchrashuvi boʻlib oʻtdi.

Ochiq muloqot shaklida oʻtkazilgan tadbirda oliy oʻquv yurtlarida taʼlim olayotgan talabalar, korxona, tashkilot va muassasalarda mehnat qilayotgan yosh mutaxassislar hamda kasaba uyushma faollari qatnashdi.

11-noyabr — Oʻzbekiston kasaba uyushmalari kuni bayrami arafasida tashkil etilgan uchrashuvda yoshlarga mamlakatimizda demokratik tamoyillar, Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida oʻrtirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi, shuningdek, fuqarolar, ayniqsa, navqiron avlodning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy faolligini oshirish borasida olib borilayotgan ishlar toʻgʻrisida maʼlumotlar berildi.

Bundan tashqari, kasaba uyushmalari tizimini takomillashtirish yoʻnalishida amalga oshirilayotgan tizimli tadbirlar, bu orqali mehnatkashlar ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida jamoa kelishuvlari va shartnomalarga kiritilayotgan oʻzgarish hamda qoʻshimchalar xususida ham soʻz bordi.

Taʼkidlanganidek, Qoraqalpogʻiston kasaba uyushmalari Kengashi kasaba uyushmalarning 314 ming 745 nafar aʼzosiini birlashtirgan boʻlib, shundan 30 yoshdan oshmagan yoshlar 114 ming 894 nafarni tashkil etmoqda. Ulardan 40 ming 183 nafari yosh mehnatkash hamda 50 ming 454 nafari talaba yoshlardan iborat.

Tadbirda bugungi kunda kasaba uyushmalari mehnatkashlarining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlari hamda mehnat huquqlarini himoyalash bilan birga talaba yoshlarni ham har tomonlama qoʻllab-quvvatlayotgani, ularning iqtidorlarini yuzaga chiqarishga koʻmaklashayotgani, shartnoma toʻlovlarini qoplab berayotgani alohida qayd etildi.

Uchrashuv doirasida taʼlim olish bilan birga jamoatchilik ishlariga munosib hissa qoʻshib kelayotgan, har tomonlama namunalni hamda iqtidorli, shuningdek, kam taʼminlangan oilalardan boʻlgan va jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar kasaba uyushmalari tomonidan taʼsis etilgan stipendiya hamda kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarga bepul yoʻllanmalar bilan ragʻbatlantirildi.

Tadbirda bir qator yosh mehnatkashlarga Kengashning faxriy yoriqlari topshirildi.

“Xalq soʻzi”.

IHTning TOSHKENT SAMMITI

keng mintaqaga tegishli muammolarni hal qilishda umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun yangi maydon



Mamlakatimiz IHTga Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda rivojlanishni yaxshilash, savdo va sarmoyaviy imkoniyatlarni ilgari surish yoʻllarini muhokama qilish uchun platforma sifatida qaraydi.

Oʻzbekiston ushbu tashkilot doirasida mintaqalararo tranzit xabarlarni tashkil etish, zamonaviy transport va yoʻl infratuzilmalarini rivojlantirish, transport va tranzit tariflarini optimallashtirish hamda qoʻshimcha chegirimalarni taqdim qilish, xalqaro yuk va yoʻlovchi tashish shartlarini yengillashtirish, transport sohasini raqamlashtirish masalalariga aniq yechimlar topish tarafdori.

Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyev Ashxobdodagi sammitda “yashil” iqtisodiyotni birgalikda faol rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga resurs toʻjovchi texnologiyalarni keng joriy etish, uglerod neytralligiga erishish tashabbusini ilgari surdi.

Oʻzbekiston, shuningdek, Afgʻonistonga umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish va zarur yordam koʻrsatish uchun kuchlarni birlashtirish tarafdori. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari Afgʻoniston bilan birgalikda ushbu mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va afgʻon xalqini qoʻllab-quvvatlash maqsadida mintaqaviy ahamiyatga molik yirik savdo, transport va energetika loyihalarini amalga oshirishni izchil davom ettirish tashabbusi bilan chiqdi.

Bugungi kunda IHT davlatlari Oʻzbekistonning eng yirik savdo hamkorlari hisoblanadi. 2022-yil yakuni boʻyicha Oʻzbekiston va IHT davlatlari oʻrtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 12,3 milliard AQSH dollarini, 2023-yilning yanvar — iyul oylarida esa 5,8 milliard dollari tashkil qildi.

2018-yil may oyidan boshlab Oʻzbekiston va Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti oʻrtasida aloqalar faollashgani kuzatilmoqda. Xususan, 2018-yildan buyon tashkilot bosh kotiblari Xalil Akcha, Xadi Suleymanpur, Xusrav Noziri, shuningdek, bosh kotib oʻrinbosari Husayn Bichakli Oʻzbekistonga tashrif buyurdi.

Shu bilan birga, Oʻzbekiston tomonining ushbu tuzilma shafeligida oʻtkazilayotgan xalqaro tadbirlardagi ishtiroki ham sezilarli darajada faollashdi.

Oʻzbekiston rasmiy delegatsiyalari bosh prokurorlar, dengiz tashkilotlari rahbarlari, transport, turizm va qishloq xoʻjaligi vazirlari yigʻilishlarda, shuningdek, aʼzo mamlakatlarning mineral resurslar boʻyicha ekspert guruhli va veterinariya tashkilotlari rahbarlarining uchrashuvlarida ishtirok etmoqda.

2020-yildagi koronavirus pandemiyasi tufayli koʻplab tadbirlar onlayn tarzda boʻlib oʻtdi. Jumladan, IHTga aʼzo davlatlar yigʻilishi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO) va “ECOLONER” xalqaro energetika konsalting kompaniyasining IHT Toza energiya markazini tashkil etish loyihasini muhokama qilish boʻyicha uchrashuvi, IHTning “Mintaqaviy elektr energiyasi bozorlarining iqtisodiyoti va muammoni”: savdo va sarmoyaviy imkoniyatlar” konferensiyasi, Fuqarolik aviatsiyasi ishchi guruhining birinchi yigʻilishi (noyabr), IHTning geografik koʻrsatkichlar

boʻyicha mintaqaviy seminari (noyabr) onlayn shaklda tashkil etildi.

2020-yil dekabr oyida boʻlib oʻtgan Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga aʼzo davlatlar transport vazirlarining virtual uchrashuvi yakunlariga koʻra, Oʻzbekistonning Markaziy Osiyo — Afgʻoniston — Pokiston, Markaziy Osiyo — Afgʻoniston — Eron, Oʻzbekiston — Turkmaniston — Eron avtomobil va temir yoʻl transporti yoʻllarini yaratish boʻyicha tashabbuslari tashkilotga aʼzo davlatlar tomonidan qoʻllab-quvvatlandi va yakuniy Deklaratsiyaga kiritildi.

2021-yil yanvar oyida IHTga aʼzo davlatlar Maxsus Iqtisodiy zonalar rahbarlarining birinchi yigʻilishi va Mintaqaviy rejalashtirish kengashining 31-yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Oʻzbekiston raisligida 2022-yil 17 — 26-yanvar kunlari boʻlib oʻtgan IHT Mintaqaviy rejalashtirish kengashining navbatdagi yigʻilishida mamlakatimiz tashabbusi bilan 2022-yil “Oʻzaro bogʻliqlikni mustahkamlash yili” deb eʼlon qilindi.

Taʼkidlash joizki, Oʻzbekistonning Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga raisligi davrida 25 dan ortiq tadbirlar oʻtkazildi.

Xususan, 2022-yil 5-6-iyul kunlari Toshkent shahrida tashkilotga aʼzo davlatlar qishloq xoʻjaligi vazirlarining 7-yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Ushbu tadbirda tashkilot bosh kotibi Xusrav Noziri ham qatnashdi.

2022-yil 13-dekabr kuni IHT davlatlari turizm vazirlarining toʻrtinchi yigʻilishi onlayn tarzda tashkil etildi. Mazkur yigʻilish yakunlariga koʻra, Shahrisabz shahri “2024-yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti turizm poytaxti” deb eʼlon qilindi.

Shu oʻrinda qayd etish kerakki, Oʻzbekiston Prezidenti 2022-yil 5-dekabrda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotga toʻlaqonli aʼzolikning huquqiy asoslarini mustahkamlash, shuningdek, tashkilotga aʼzo davlatlar bilan keng hamkorlik qilish imkonini beruvchi “Izmir Shartnomasini ratifikatsiya qilish toʻgʻrisida”gi Qonunni imzoladi.

2023-yil 24-yanvar kuni Toshkentda Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashining 26-yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Yigʻilishda tashkilotga aʼzo barcha davlatlar TIV rahbarlari ilk bor ishtirok etishdi. Uchrashuv yakunlari boʻyicha Toshkent kommyunikesi imzolandi. Shu kuni Oʻzbekiston Prezidenti Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibini qabul qildi.

Shuningdek, IHT bosh kotibi Xusrav Noziri 2021-yil oktabr oyida boʻlib oʻtgan Prezident saylovida va joriy yilning 30-aprel kuni oʻtkazilgan Oʻzbekiston Konstitutsiyasiga oʻzgartish va qoʻshimchalar kiritish boʻyicha referendumda xalqaro kuzatuvchi sifatida qatnashganini ham alohida taʼkidlash joiz.

Tashkilot navbatdagi sammitining Toshkentda oʻtkazilishi Oʻzbekistonning Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga aʼzo davlatlar bilan oʻzaro hamkorligiga yangi surʼat bagʻishlashi, birlashma uchun dolzarb masalalarni hal etishda umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish, shuningdek, keng IHT makonida istiqomat qilayotgan barcha xalqlar manfaatiga yoʻlida mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash boʻyicha tuzilmaning keyingi ustuvor yoʻnalishlarini belgilash uchun yangi asos yaratadi.

“Dunyoy” AA.



Moʻjizakor mehnatning ilohiy kuchi

Oqil SALIMOV, akademik:

— Bir umrlik tinimsiz, moʻjizakor mehnat, Vatanga boʻlgan cheksiz muhabbat Sharof Rashidovga soʻnmas ilohiy kuch ato etgan. Yangi yerlarni oʻzlashtirish uchun olib borilgan mislsiz kurashlar, respublikamizda bunyod etilgan son-sanoqsiz bogʻu rogʻlar, dahshatli zilziladan tuday toʻkilgan Toshkentdek azim shaharning qayta qad koʻtarishi, qanchadan-qancha yer ostiyu yer usti inshootlarining bunyod etilishi, madaniyatimiz, adabiyot va sanʼatimiz ravnaqi yoʻlidagi jonbozliklar, qolaversa, oʻzbek xalqini, uning madaniyatini xorijiy mamlakatlarga tanitish, oʻzaro doʻstlik aloqalarini mustahkamlash yoʻlidagi shijoatli faoliyat u kishining taqdiriga aylangan edi.

Sharof Rashidov rahbarligida barpo etilgan xiyobonlarda hordiq chiqarayotgan, poytaxtimizdagi metropoliten xizmatidan foydalanayotgan, teatrlaru muzeylar, sanʼat saroylari yo sayilgohlarda boʻlgan har bir inson uning porloq xotirasi oldida hurmat bajo keltiradi. Sharof Rashidov Oʻzbekistondagi bunyodkorlik ishlari bilangina cheklanib qolmasdan Hindiston va Pokiston oʻrtasidagi mojaroni toʻxtatishga munosib

XALQIMIZNING SADOQATLI FARZANDI

Kamtarlik — kamolot belgisi

Sobir QURBONOV, mehnat faxriysi:

— Sharof Rashidov fenomeni haqida oʻylaganimda, meni, birinchi galda u kishining xalqimizga xos kamtarligi hayratga soladi. Bu oddiy kamtarlik emas edi. Unda ulugʻvorlik, mardlik, fidoyilik kabi xalqimizning ajoyib fazilatlari namoyon boʻlib turardi. Bir voqeani koʻp eslayman. Chamas, 1973-yil edi. Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida muzey tashkil qilinishiga olimlar, mehnat faxriylari, mutaxassis va rassomlar jalb qilindi. Ekspонатlar tarixiy nuqtayi nazaridan toʻgʻri tanlangan va oʻrinli joylashtirilgan, yozuvlar aniq va tushunarli. Biz mavjud bir-ikki kamchilikni bartaraf qilishni tavsiya etib, muzey ochish uchun tayyor ekanligi haqida Toshkentga axborot yetkazdik.

Shundan keyin muzeyning ochilish marosimiga shaxsan Sharof Rashidov bordi. U kishi maydonchada yigʻilgan odamlarga yaqinlashdi, qoʻlini koʻksiga qoʻygan holda salomlashib, mahalliy rahbarlar va biz bilan qoʻl berib koʻrishdi. Keyin muzey eshigiga tortilgan lentani kesdi. Taxminan 20 — 30 daqiqa davomida muzey ekspонатlarini koʻzdan kechirib, faxriy mehmonlar kitobiga tashakkurnoma yozib qoldirdi.

Muzey binosidan chiqayotganida meni yoniga chaqirdi va kiraverishdagi xonaga osib qoʻyilgan portretini koʻrsatib:

— Buni bu yerdan oldiring. Esingizdan chiqmaydimi? — deb soʻradi. Tashqariga chiqqandan keyin, uni kutib turgan odamlar bilan xayrlashayotganida, yana bir marta oʻzining portretini olib qoʻyishni menga eslatdi.

Sharof Rashidovning el hurmatiga sazovor boʻlgan benazir va kamtarin inson ekanligini tasdiqlovchi bunday misollar juda koʻp.

Adolat qaror topdi

Abdusamat POLVONZODA, adliya faxriysi:

— Mustaqillikning ahamiyatini anglashda buyuk inson, davlat arbobi Sharof Rashidovning hayotini, murakkab faoliyatini va unga nisbatan qilingan adolatsizliklarni

xolisona oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbekistonni 24 yil davomida boshqargan Sharof Rashidov nomi oʻzbek xalqining tarixi, hayoti bilan payvasta. U millat gardaniga yuk boʻlib tushgan paxta yakkahukmronligi davrida, hech boʻlmasa, xalqning ogʻirini yengillashtirish, ijtimoiy sharoitini yaxshilash maqsadida qoʻllan kelganicha xizmat qildi, xalqning mehr-muhabbati va hurmatiga sazovor boʻldi. Mustamlakachilik tuzumining juda murakkab va ogʻir yillarida yurtimiz taraqqiyoti, milliy adabiyotimiz va madaniyatimiz rivojiga katta hissa qoʻshdi.

Oʻsha paytda Oʻzbekistonning 65 foiz aholisi faqat paxta yetishtirish bilan shugʻullanar, millionlab odamlar — maktab oʻquvchilari, talabalar markazning topshirigʻi bilan dekabr oxirigacha paxta terish bilan band edi. Oʻzbekistondan markazga yuborilgan axborotlarda paxta yetishtirish uchun suv yetishmasligi, Orol dengizining quriyotgani, paxta uchun berilayotgan mablagʻ nihoyatda ozligi, kolxozchilar iqtisodiy ahvoli, turmush tarzining oʻta achinarli ekanligi, paxta zararkunandalarga qarshi ishlatiladigan gerbitsidlar tufayli koʻplab paxtakorlar zaharlanayotgani asoslab berilarʼ edi. Ammo markaz minglab paxtakorlarning ohu zoriga eʼtibor bermasdi. Hattoki markaz rahbarlaridan biri paxtani Oʻzbekistondan emas, Misrdan olish mumkinligini aytib, xarid narxini koʻtarishga qarshi turgan.

Ana shunday bir paytda yurtimizda “Paxta ishi”, “Oʻzbeklar ishi” nomi bilan tarixda qolgan qatagʻonlar avj oldi. Yuqori lavozimlarda ishlagan shaxslarga nisbatan tergov harakatlari olib borildi, ulardan iqrorlik koʻrgazmalarini olish uchun yuzlab qarindoshlari, qoʻshnilari, hatto tanishlari qamoqqa tashlanib, qiynoqqa tortildi.

Biroq mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, adolat qaror topdi. Ishlar qayta koʻrib chiqilib, nohaq ayblanganlar oqlandi. Bugungi kunda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yaqin tariximizda yuz bergan bu voqealarga adolati baho berdi. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi oʻtkazilayotgan chuqur islohotlar, eng avvalo, Vatani mustaqilligini mustahkamlashga, inson huquqlarini himoya qilish va ishonchli kafolatlashga qaratilmoqda.

Nosir TOIROV, Nurulloh OSTONOV (“Xalq soʻzi”) uyushtirdi.

2024-YIL UCHUN DAVLAT BUDJETI LOYIHASI HAMDA HUKUMAT HISOBOTI KOʻRIB CHIQILDI



Yigʻilishda davlat dasturining 2023-yil toʻqqiz oyi yakuni boʻyicha bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining hisoboti ham koʻrib chiqildi.

Deputatlar hisobotni koʻrib chiqish chogʻida davlat dasturi doirasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarga alohida eʼtibor qaratdi.

Hisobot davrida “Raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellekt sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirish dasturi” tasdiqlangani, uning doirasida sunʼiy intellekt texnologiyalarni jadal joriy etish boʻyicha umumiy qiymati 33,6 mlrd. soʻmga teng 20 ta loyiha moliyalashtirilgani fraksiya aʼzolari tomonidan alohida qayd etildi.

Joriy yilning 9 oyi davomida OʻzLiDeP sayilovdi dasturining yana bir muhim yoʻnalishlaridan biri — qishloq xoʻjaligi sohasida amalga oshirilgan samarali ishlar ham deputatlar tomonidan ijobiy baholandi.

Oʻtgan davrda dehqon xoʻjaliklarini tadbirkorga, yer egasiga aylantirish, buning hisobiga qishloqlarda ijtimoiy muammolar, avvalo, ishsizlik va kambagʻallik masalasini hal etish maqsadida tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturlari doirasida 88,6 ming gektar yer maydonlari “E-AUKSION” elektron savdo platformasida ochiq elektron tanlovlarga chiqarilgan holda 236,9 ming nafar gʻolbiga ajratib berilgani alohida eʼtibor etildi.

Yigʻilishda deputatlar tomonidan koʻtarilgan barcha savollarga tegishli vazirliklar masʼullari atroflicha javob qaytardi.

Ijroda masʼuliyat va talabchanlik muhim

Oʻzbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzolari “2024-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi muhokamasida byudjet taqchilligi masalasiga eʼtibor qaratdi.

Taʼkidlab oʻtilganidek, ushbu hujjat bilan 2024-yilda byudjet taqchilligining yuqori chegarasi 4 foiz etib belgilangani sababli kelgusi yil uchun tashqi qarzlarini jalb qilish boʻyicha yillik imzoladanigan yangi bitimlarning jami cheklangan hajmi

oshtirilib, 5,0 mlrd. AQSH dollari miqdorida belgilash taklif etilmoqda. Bunda Davlat budjetini qoʻllab-quvvatlash, jumladan, taqchillikni moliyalashtirish uchun 2,5 mlrd. AQSH dollari miqdorida belgilanyapti. Valyuta xatarini kamaytirish maqsadida Oʻzbekiston nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qogʻozlarining cheklangan sof hajmini oshirgan holda 25,0 trln. soʻm miqdorida belgilash taklif qilinmoqda.

Fraksiya aʼzolari qonun loyihasining har bir moddasini sinchiklab tahlil qildi va Hukumat vakillarini ayrim masalalarda savolga tutdi. Masalan, fraksiya aʼzosi Muxtabar Husanova “Tashabbusli byudjet” orqali koʻplab loyihalar qoʻllab-quvvatlanayotgani, bu esa hududlardagi ijtimoiy muammolar yechimida muhim ahamiyat kasb etayotganini taʼkidlab, mutasaddilar eʼtiborini yetarli ovoz oltolmagani ayrim loyihalarga qaratedi. Hukumat vakillari ushbu masalaning haqiqatda dolzarbligini, bu boʻyicha tegishli takliflar ishlab chiqilib, zarur ovoz toʻplolmagani loyihalarini ham qoʻllab-quvvatlash maqsadida Byudjet loyihasida qoʻshimcha mablagʻ ajratilayotganini qayd etdi.

Yigʻilishda, shuningdek, pedagog xodimlar mehnatiga haq toʻlashning samarali tizim va uslublarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish, ular oʻrtasida sogʻlom raqobatni amalga oshirish, maktablar oshxonalarini talab darajasida yaxshilash, boshlangʻich sinf oʻquvchilarini bepul tushlik bilan taʼminlashga oid qator masalalar yuzasidan mutasaddilar oʻz fikrlarini bildirtdi.

Davlat dasturining joriy yil 9 oyi yakuni ijrosi muhokamasida qayd etilganidek, hisobot yakunida YAIM oʻsishi oʻtgan yilning shu davridagiga nisbatan 5,8 foizni tashkil qilgan. Davlat budjeti daromadlari 98,8 trln. soʻmga ijro etilgan. Jami xarajatlar 201,3 trln. soʻm, shundan ijtimoiy sohalarga yoʻnaltirilgan xarajatlar 98,5 trln. soʻm boʻlgan. Ushbu sarflangan xarajatlar oʻtgan yilning mos davridagiga nisbatan 18,3 foizga oshgan.

Deputatlar Davlat dasturining joriy yil 9 oyi yakuni ijrosini qizgʻin muhokama qilib, byudjetdan ajratilgan mablagʻdan maqsadli foydalanish hamda belgilangan vazifalarni oʻz vaqtida bajarish va bu borada nazoratni yanada kuchaytirish lozimligini taʼkidladi.

Ijtimoiy sohaga yoʻnaltirilgan mablagʻlar maqsadli sarflanadi

Oʻzbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida dastlab davlat dasturining 2023-yil toʻqqiz oyi yakuni boʻyicha bajarilishi yuzasidan Vazirlar Mahkamasining hisoboti muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, oʻtgan davrda aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat koʻrsatish sifatini yaxshilash maqsadida tasdiqlangan chora-tadbirlar doirasida 5,9 mln. nafar 18 — 40 yoshli aholi profilaktik tibbiy koʻriklardan oʻtkazilgan. Kasalliklari mavjud aholining 1,4 mln. nafari ambulator sharoitda, 41 ming nafari esa statsionar sharoitda sogʻlomlashtirilgan.

Muhokamarlar davomida fraksiya aʼzolari davlat dasturi asosida amalga oshirilgan keng koʻlamli ishlarni eʼtirof etish bilan birga, ayrim masalalar yuzasidan Hukumat aʼzolari savollarga tutishdi. Dastur doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda sustkashlikka yoʻl qoʻymaslik zarurligi qayd etildi.

Yigʻilishda “2024-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga, hududiy boshqaruv organlarining byudjetni ishlab chiqish, mablagʻlarni tasarruf qilishdagi roli va mustaqilligini oshirishga katta eʼtibor qaratilgani bilan ahamiyatli ekani qayd etildi.

Deputatlarning fikricha, loyihada ijtimoiy sohaga, xususan, taʼlim va sogʻliqni saqlash tizimiga katta eʼtibor qaratilgan. Bu ushbu yoʻnalishdagi islohotlarni amalga oshirish, sifatli taʼlimni taʼminlash va aholiga malakali tibbiy xizmat koʻrsatishga imkon yaratadi.

Munozaralar chogʻida deputatlar ushbu mablagʻlar tizimli va maqsadli hamda oʻz vaqtida sarflanishiga alohida eʼtibor qaratish zarurligi, shu bilan birga, tibbiyot sohasiga ajratilayotgan mablagʻlarni sarflashda respublikaning chekka, borish qiyoi boʻlgan har bir qishloq hududida, aholi sonidan qatʼi nazar, alohida tibbiyot muassasasi faoliyatini tashkil qilish ishlarni yakunlash lozimligini bildirtdi.

Kam daromadli oilalar turmush tarzini yaxshilashga eʼtibor qaratilmoqda

Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi aʼzolari davlat dasturining 9 oyligi ijrosi muhokamasida byudjet mablagʻlarining katta qismi ijtimoiy sohalarga ajratilganini hisobga olib, xotin-qizlar va yoshlarni qoʻllab-quvvatlash, ishsiz va kam daromadli oilalarga yordam qilish, sogʻliqni saqlash, taʼlim tizimi kabi qator yoʻnalishlardagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar uchun yoʻnaltirilgan mablagʻlarning maqsadli va manzilligini taʼminlash zarurligiga eʼtibor qaratdi.

Xususan, joriy yilning 9 oyi davomida 30 yoshdan oshgan 7,7 mln. nafar xotin-qiz xatlovdan oʻtkazilib, ularning 1 mln. 680 nafari “ayollar daftari”ga kiritilgan. 929 ming 813 nafariga yordam koʻrsatilgan.

Bundan tashqari, yoshlar muammolari va murojaatlari bilan ishlashning yangicha mexanizmi joriy etilib, yigʻit-qizlarga “yoshlar daftari.uz” elektron platformasi, “1093” qisqa raqamli Call-markaz yoki mahalla yetakchisi orqali onlayn ariza qoldirish va murojaat holati toʻgʻrisida maʼlumot olish imkoniyati yaratilgan. Hisobot davrida yoshlar yetakchilari faoliyati yoʻlga qoʻyilishi natijasida yoshlar murojaatlarini koʻrib chiqish muddati 30 kundan 5 kunga, yordam koʻrsatish 40 kundan 16 kunga qisqartirilishiga erishilgan, yetakchilar tavsiyasi asosida koʻrsatiladigan yordam turlari 11 tadan 25 taga yetkazilgan.

Fraksiya yigʻilishida, shuningdek, “2024-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi hamda Byudjetnoma koʻrib chiqildi.

Taʼkidlab oʻtilganidek, loyihada aholini ijtimoiy himoya qilish jami xarajatlari uchun 18,6 trln. soʻm, shundan kam taʼminlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar toʻlash xarajatlariga 10,3 trln. soʻm mablagʻ rejalashtirilmoqda. Fraksiya aʼzolari ushbu mablagʻlar kambagʻallikni qisqartirish, kam daromadli oilalarning turmush tarzini yaxshilashda dolzarb ahamiyatga ega ekanini qayd etishdi.

Shuningdek, kelgusi yilda kam taʼminlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordamlar toʻlash, ijtimoiy himoya milliy agentligining tizim tashkilotlarini (bolalar va Mehribonlik uylari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash sektorlari hamda oilaviy bolalar uylari) saqlash xarajatlari, mahallalarni nodavlat notijorat tashkilot

va byudjetdan mablagʻ oluvchi sifatida saqlash xarajatlari respublika byudjetidan moliyalashtirilishi belgilanmoqda.

Deputatlar Davlat budjetining taqsimoti bilan bogʻliq masalalarda masʼullarga savollar bilan murojaat qildi. Chunonchi, fraksiya aʼzosi Maqsuda Vorisova doridarmonning realizatsiyasi bilan bogʻliq masalani koʻtarib, sohadagi sugʻurtalash tizimining bekor qilinishi, soliqlarni joriy etish narx-navoning oshib ketishiga taʼsir qilishi mumkinligini taʼkidladi. Bu borada Sirdaryodagi voqealar biror qaror chiqarishdan oldin jiddiy oʻylab koʻrishni taqozo qilish qayd etildi. Shu bilan birga, 40 yoshdan oshgan fuqarolarni qandil diabet kasalligiga tekshirish uchun mablagʻlar yoʻnaltirilmaganiga eʼtiroz bildirdi.

Oʻz navbatida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi aholi glyukoza topshirishi uchun 14 milliard qoʻshimcha mablagʻ loyihaga kiritilishini maʼlum qildi.

Fraksiya aʼzolari kun tartibidagi masalalar yuzasidan keltirilgan raqamlar, taqdim etilgan maʼlumotlardan kelib chiqib tegishli qarorlar qabul qildi.

Ekologik barqarorlik — taraqqiyot kafolati

Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yigʻilishida davlat dasturining 9 oyligi ijrosi doirasida mavayyan sohalarda qator ishlar amalga oshirilgani taʼkidlandi. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarining havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizgacha qisqartirish maqsadida yangi ishga tushirilgan 29 ta korxonada samaradorlik darajasi 99,5 foizdan kam boʻlmagan chang-gaz tozalash uskunalari oʻrnatilgan.

Shuningdek, Orol fojiasining oldini olishga qaratilgan oʻrmon-meliorativ tadbirlarni jadallashtirish maqsadida Orol dengizining qurgan tubi va Orolboʻyi mintaqasida bugungi kungacha jami 195 ming gektar, shundan Moʻynoq tumanida 128 ming gektar, Buxoro viloyatida 40 ming gektar, Xorazm viloyatida 10 ming gektar va Navoiy viloyatida 17 ming gektar maydonda “yashil qoplamalar” barpo etilgan.

Yigʻilishda fraksiya aʼzolari global iqlim oʻzgarishlari sharoitida mintaqada yuzaga kelayotgan suv taqchilligini yumshatish maqsadida suv resurslarini boshqarishni tubdan isloh qilish va suvni tejash boʻyicha vazirlar ijrosini samarali tashkil etish hamda bu borada nazoratni kuchaytirish yuzasidan qator taklif va tavsiyalar berishdi.

Shundan soʻng “2024-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, keyingi yillarda dunyoda kuzatilayotgan tahlikali vaziyatlarga qaramasdan mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish, energiya resurslari bozorini isloh qilish, xususiyashtirish va transformatsiya qilishni yanada jadallashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Muhokamalarda deputatlar tomonidan mintaqamizda suv muammosi tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi yuzasidan fikrlar bildirildi. Soʻnggi ikki yilda suv xoʻjaligiga byudjetdan 22 trln. soʻm, jumladan, suv toʻjovchi texnologiyalarga qariyb 1 trln. soʻm subsidiya ajratilganligiga eʼtibor qaratildi.

Davlat budjetidan ajratilgan mablagʻlar doirasida kelgusi yillarda suv oʻrish kanallarini betonlash, suv toʻjovchi texnologiyalarni oʻrnatish, suvdan

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI

Uning asosiy bunyodkori kimlar?

1 G'arbda o'rta sinfga daromadi oilasi ehtiyojiga to'la yetadigan, keksaligi uchun bir oz mablag' jimg'arish imkoniga ega kishilar kiradi. Bizda esa ziyolilar va turli toifadagi xizmatchilarning aksariyati hozircha daromadi bo'yicha o'rta sinf mezoniga bir oz tortmaydi. Ammo jamiyatning ijtimoiy va madaniy hayoti, ta'lim, tarbiya, boshqaruv, ilm-fan, sog'liqni saqlashda tutgan o'rni bo'yicha o'rta sinfning yetakchi qatlami hisoblanadi.

O'rta sinf yangi O'zbekistonni barpo etish, uchinchi Renessans asosini yaratish, milliy g'oyani amalga oshirishning ham asosiy harakatlantiruvchi subyekti, ijodiy va kreativ kuchidir. Quyi sinf, hokimiyatga va jamiyatga ziddiyatli munosabatlarga qaramay, milliy til, madaniyat, urf-odat, umuman, milliy mentalitet va milliy psixologiyaning tashuvchilari. Milliy boyliklar asosiy qismini quyi sinf mehnati yaratadi. U xalqning nisbatan katta qismini tashkil etadi.

O'rta sinf mamlakat osoyishtaligidan, narx-navo barqarorligidan, ijtimoiy adolat, demokratiya va qonun ustuvorligi ta'minlanishidan boshqa ijtimoiy guruhlariga nisbatan ko'proq manfaatdor. Oligarxlar va yirik kapital vakillarining aksariyati turli geosiyosiy o'yinlar, ichki va tashqi ziddiyatlardan foydalanib daromadini yanada ko'paytirishga qarshi emas. Yirik sarmoyadorlar turli tasodifardan himoyalash uchun boyligini turli mamlakatlarning har xil qiymatli qog'ozlarida saqlaydi, investitsiya sifatida mamlakatga nisbatan jami olinganda o'zga davlatlar rivojiga ko'proq kiritadi. Qaltis vaziyatlarda o'z mamlakatidan ofshor zonalarga, boshqa mamlakatlar banklariga olib chiqib ketishga urinadi. Shu ma'noda, ularning "vatani yo'q" deyish mumkin.

Haqiqatan ham, oligarxlarning Vatani, millati nisbiy tushuncha. Qayer boyish uchun qulay va xavfsiz bo'lsa, o'sha yer unga vatandir. Oligarxlarning vatanparvarligi beqaror. Bunga o'tmishdan va hozirgi kundan istagancha misol keltirish mumkin.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, yirik daromad egalari, ammo kapitalist bo'lmagan Xo'ja Ahror Veli, Alisher Navoiy masjid, madrasa, hammom, ko'priq, yo'l qurish, ariq qazish va ulkan obodonchilik ishlarini amalga oshirgan. Qurg'oqchilik sababli

iqtsodiy nochorlik yuz berganida, savdo-sotiq tanazzulga yuz tutib, dehqonlar va hunarmandlar qiynalib qolganida bu ulug' insonlar aholining uch yillik solig'ini o'z hisobidan to'lab yuborgan. Ammo sarmoyadorlar orasidan saxovatpesha, xalqparvar kishilar juda ko'p chiqmagan. Ularning vatanparvarligi, saxiyligi olgan tarbiyasiga, individual fazilatiga bog'liq bo'lgan. Bugungi kunda oligarxlarning homiylik va turli ijtimoiy fondlarga mablag' ajratishi ko'proq reklama maqsadini ko'zlaydi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aholi, mehnatkash omma, ishchi va xizmatchilar noroziliklari, ko'cha namoyishlari, odatda, o'rta va kichik korxonalarga qarshi emas, balki yirik korxonalarda va muayyan tarmoqda adolat buzilishiga yoki hukumatning bu boradagi siyosatiga, qaroriga qarshi sodir bo'ladi. Ayonlashmoqdaki, yirik kapital nihoyatda ziddiyatli ijtimoiy fenomendir.

Kambag'allik chegarasidayashaydigan, o'ylik maoshlari past, malakasiz qora ishchilar, uyushmagan ishshilar, bekorchilar siyosiy beqarorlikning potentsial manbaidir. Ular ichki va tashqi muxolif kuchlar qo'lida siyosiy tartibsizlik va g'alayonlar ishtirokchisiga tez aylanadi. Ko'cha namoyishlari, ur-yiqitlar va "rangli inqilob"larning ijrochilari aynan yirik kapital va proletarlashgan omma — siyosiy barqarorlik va barqaror rivojlanish uchun ma'lum vaziyatlarda potentsial xavf tug'diradi.

XXI asrda odamlar turli yo'llar bilan shunchaki kun ko'rishni emas, yaxshi yashashni istamoqda. Hayot sifati o'sganini, puli bo'lsa, xohlaganidek yashashni, dunyoni kezishi, dam olishi mumkinligini his qilib, odamlar kam maoshli ishlaridan yuz kecha boshladi. Bo'sh ish o'rinlari bo'la turib, maoshdan qoniqmagani kishilar, ishshilar safini to'ldirmoqda yoki ishlash uchun chetga chiqib ketmoqda. Demak, kambag'allashishning oldi olinishi, ishshilar band etilishi, to'lanadigan ish haqi nisbatan yetarli bo'lishi zarur.

Lekin yirik kapital ziddiyatli ekanisususi mulk rivojlanishni cheklamasligi kerak. Milliy tiklanish davridagi "O'zbekistonda o'ta boylar ham, kambag'allar ham bo'lmasin" degan tamoyil tahrir qilinishi lozim. Bundan tashqari, o'ylik ish haqi va fuqarolarga qo'shimcha daromadi muttasil o'sib borishi, "iste'mol savatchasi",

boshqa gumanitar soha ziyolilari qatlamiga kirishi, keyinchalik qobiliyatiga qarab nufuzli mansablarni egallashi mumkin. Ta'lim olish, ishda o'zini ko'rsatib, kreativlik namoyon qilish, iqtidor, ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra huquqlari cheklanmasligi "sotsial lift" vazifasini bajaradi.

"Sotsial lift"larning turlari ko'p. Ularning ayrimlari ijtimoiy adolatni ta'minlashda, insonning o'z imkoniyatlarini, qobiliyatini yuzaga chiqarishda juda ijobiy rol o'ynaydi. Ammo ayrimlari huquqiy va axloqiy jihatdan nomaqbul. Ayniqsa, ijtimoiy kelib chiqishiga qarab yoki pora evaziga xizmat pog'onalarida o'sish, nufuzli boy kishiga kuyov bo'lib, yuqori daromadga erishish, xizmat vazifasini suiste'mol qilib, o'ziga sodiq, leklin noloyiq kishini mansabga ko'tarish va hokazo. Shu bois tabaqaviy imtiyozlar industrial jamiyatdoyoq bekor qilindi. Qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat ta'minlanishi, inson kelib chiqishiga, sotsial holatiga qarab kamsitilmasligi hamda korruptsiya, tanish-bilishchilik, mahalliychilik, millatchilik va shu kabi boshqa illatlar minimalashtirilishi kerak.

O'zbekistonda aynan shunday siyosat yuritilmoqda. Ammo ongimizga chuqur o'rmashtgan qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik va boshqa illatlar haliy ham ancha kuchli. Unutmastik kerakiki, yuqorida qayd etilgan ikki sinf — oligarxlar, yirik kapital va proletarlashgan omma — siyosiy barqarorlik va barqaror rivojlanish uchun ma'lum vaziyatlarda potentsial xavf tug'diradi.

O'rta sinf oyoqqa turishi va rivojlanishining iqtisodiy omillaridan tashqari, siyosiy-huquqiy, axloqiy, mafkuraviy-ma'naviy omillari bor. Avvalo, ijtimoiy adolat ta'minlangan joyda insonda ertangi kunga, sa'y-harakatlari zoye ketmasligiga ishonch paydo bo'ladi. Bu esa unga o'z ishini, biznesini yoki ijodiy rejalarini amalga oshirishda ma'naviy tayanchdir. Davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy ma'rifiy siyosati adolati amalga oshirilishi odamlarga o'qish, ta'lim-tarbiya olish, kasb o'rganish, sog'liqni saqlash, o'z uy-joyiga ega bo'lishi, "sotsial lift"lardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Shunda odamlar o'z qobiliyati, intellektual va kasbiy salohiyatini yuzaga chiqarish, shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kadrlar tanlanishi, xizmat pog'onasida

qiymatidan 15 — 17 foiz ortiq bo'lishiga erishish zarur. Inflyatsiya jiловlanishi, yillik ko'rsatkichda 2 foizdan oshmasligi shart.

Qayd etilgan ikki sinf orailig'idagi ijtimoiy guruhlar formal jihatdan o'rta sinfdir. Bu sinf daromadi, bilimi va malakasi, madaniy saviyasiga ko'ra, rang-barang. Ayniqsa, yurtimizda ko'pchilik mutaxassislar, madaniyat tashkilotlari, ta'lim, tibbiyot va har xil boshqaruv idoralari xodimlarining o'ylik maoshlari hozircha ularni amalda o'rta sinf vakillari qatoriga ko'tarish uchun yetarli emas.

Turli guruhlar daromadi o'rtasidagi farqlarni, madaniy va ma'rifiy rang-baranglikni umumiy maxrajga keltirish, ularning ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy birligiga erishish lozim. Buning uchun malakali ishchi-xodimlar, davlat xizmatchilari, ziyolilarning, ayniqsa, ijodkorlarning o'ylik daromadlari munosib turlash kechirishi uchun yetarli bo'lmog'i, ular fond bozorlariga cho'ntagiga, daromadiga qarab ma'lum miqdordagi aksiyalar va qiymatli qog'ozlarni erkin sotib olish imkoniga ega bo'lishi ham muhim. Shunda ularning vatanparvarligi, milliy g'oyaga sodiqligi yanada ortadi. Aynan ular moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning, moddiy va ma'naviy boylik va qadriyatlar yaratishning asosiy omilidir. Milliy g'oyaning sotsial — sinfiy asosi sifatida o'rta sinf mustahkamlanishi kerak.

O'rta sinf oyoqqa turishi va rivojlanishining iqtisodiy omillaridan tashqari, siyosiy-huquqiy, axloqiy, mafkuraviy-ma'naviy omillari bor. Avvalo, ijtimoiy adolat ta'minlangan joyda insonda ertangi kunga, sa'y-harakatlari zoye ketmasligiga ishonch paydo bo'ladi. Bu esa unga o'z ishini, biznesini yoki ijodiy rejalarini amalga oshirishda ma'naviy tayanchdir. Davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy ma'rifiy siyosati adolati amalga oshirilishi odamlarga o'qish, ta'lim-tarbiya olish, kasb o'rganish, sog'liqni saqlash, o'z uy-joyiga ega bo'lishi, "sotsial lift"lardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Shunda odamlar o'z qobiliyati, intellektual va kasbiy salohiyatini yuzaga chiqarish, shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kadrlar tanlanishi, xizmat pog'onasida



o'shining birdan-bir mezon — uning bilimi, malakasi va ishchanligi, o'z rahbariga emas, ishiga, kasbiga, burchiga, haqiqatga sodiqligi bo'lmog'i dardor. Ana shunda kadrlar o'shida yana bir haqiqiy "sotsial lift" vujudga keladi. Agar kadrlarni tanlash va lavozimga ko'tarishda poraxo'rlik, tanish-bilishchilik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, shaxsiy sadoqat mezonlari tanlansa, aholi ijtimoiy adolatga ishonmay qo'yadi. Afsuski, bizda yuqoridagi kamchiliklar hamon mavjud.

Yangi O'zbekistonda oliy o'quv yurtlariga va ishga qabul qilishda inson omili aralashuvi sezilarli qisqardi. Bu borada asta-sekin ijtimoiy adolat qaror topmoqda. Ammo boshqa sohalarda hali muammolar ko'p. Yangi O'zbekistonni barpo etadigan va uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan yetakchi guruh yoshlardir. Yurtimizda yoshlar siyosati birligiga erishish lozim. Buning uchun malakali ishchi-xodimlar, davlat xizmatchilari, ziyolilarning, ayniqsa, ijodkorlarning o'ylik daromadlari munosib turlash kechirishi uchun yetarli bo'lmog'i, ular fond bozorlariga cho'ntagiga, daromadiga qarab ma'lum miqdordagi aksiyalar va qiymatli qog'ozlarni erkin sotib olish imkoniga ega bo'lishi ham muhim. Shunda ularning vatanparvarligi, milliy g'oyaga sodiqligi yanada ortadi. Aynan ular moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning, moddiy va ma'naviy boylik va qadriyatlar yaratishning asosiy omilidir. Milliy g'oyaning sotsial — sinfiy asosi sifatida o'rta sinf mustahkamlanishi kerak.

O'rta sinf oyoqqa turishi va rivojlanishining iqtisodiy omillaridan tashqari, siyosiy-huquqiy, axloqiy, mafkuraviy-ma'naviy omillari bor. Avvalo, ijtimoiy adolat ta'minlangan joyda insonda ertangi kunga, sa'y-harakatlari zoye ketmasligiga ishonch paydo bo'ladi. Bu esa unga o'z ishini, biznesini yoki ijodiy rejalarini amalga oshirishda ma'naviy tayanchdir. Davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy ma'rifiy siyosati adolati amalga oshirilishi odamlarga o'qish, ta'lim-tarbiya olish, kasb o'rganish, sog'liqni saqlash, o'z uy-joyiga ega bo'lishi, "sotsial lift"lardan foydalanish imkoniyatlarini yaratadi. Shunda odamlar o'z qobiliyati, intellektual va kasbiy salohiyatini yuzaga chiqarish, shaxs sifatida jamiyatda o'z o'rnini topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kadrlar tanlanishi, xizmat pog'onasida

Umuman, yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida davlat siyosati o'rta sinfni mustahkamlash, son va sifat jihatdan o'stirishga qaratilmog'i juda muhim. Zero, o'rta sinf uchinchi Renessans poydevorining sotsial asosi, iimiy-intellektual, ijodiy-badiiy, madaniy va ma'rifiy yaratuvchilik kuchi va salohiyatini tashkil etadi.

Abdurahim ERKAYEV,
Oliy Majlis Senati a'zosi.

1 Shuningdek, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish va yirik qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadida Turkiy taraqqiyot bankini tashkil etish ishlarini faollashtirish muhimligi aytilib, ushbu moliya muassasasini Toshkent shahrida joylashtirish taklifi bildirildi.

Albatta, bunday moliyaviy muassasani poytaxtimizda joylashtirish taklifi bejiz emas. Bugun mamlakatimizda yaratilgan qulay ishbiarmonlik muhiti sabab, nafaqat Toshkent shahri, balki respublikamizning barcha hududida bugungi zamon talablariga javob beradigan biznes markazlari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shu bilan birga, tashkilotga a'zo O'zarkbaykon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkiya hamda Vengriya va Turkmaniston kabi kuzatuvchi davlatlar uchun ham Toshkent shahri qulay joy hisoblanishi aniq. Chunki ayni kunda mamlakatimizda tashkilotga a'zo davlatlarning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda qator ishtirokchilari loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. O'z navbatida, davlatimiz rahbari tomonidan ushbu boshlangan o'zgarishlarni yangi bosqichga olib chiqish uchun global logistika zanjirlari hamda transport yo'laklarini rivojlantirish va diversifikatsiya qilish, yagona tranzit tarmog'ini shakllantirish masalalari dolzarb ekan ta'kidlandi. Shu ma'noda, Prezidentimiz O'rta koridor salohiyatini kengaytirish, qo'shimcha ko'p tarmoqli yo'nalishlarni, jumladan, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yevropa bozorlariga mamlakatlarimiz orqali o'tadigan yo'laklarni rivojlantirish hamda transport xizmatlarini raqamlashtirish chora-tadbirlarini qo'llab-quvvatladi. Buning uchun tashkilotning Temir yo'l idoralari kengashini ta'asis qilish va bu tuzilmaning direksiyasini O'zbekistonda joylashtirish taklif etildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari bugun dunyo mamlakatlari uchun kun tartibidagi eng muhim masalalardan biri bo'lib kelayotgan ekologik barqarorlikni ta'minlashda oldi taklifi ham ilgari surdi. Jumladan, ekologiya sohasida hamkorlikni mustahkamlash maqsadida vazirlar darajasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan Turkiy ekologiya forumini tuzish taklifi ilgari surildi. E'tiborlisi, Prezidentimiz jadid bobolarimizning ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish muhimligini qayd etib, TDT mamlakatlari vakillarini joriy yilning dekabr oyida yurtimizda bo'lib o'tadigan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqbol va davlatchilik g'oyalari" mavzuidagi xalqaro anjumanda qatnashishga chaqirdi.

Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida mintaqa davlatlari tinchligi va barqarorligi masalasiga ham alohida to'xtalib o'tdi. Mamlakatimiz yetakchisi afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmaslik, bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini uqtirdi.

Umuman olganda, Ostona shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining navbatdagi uchrashuvida bildirilgan fikr va takliflar tashkilotga a'zo mamlakatlar taraqqiyotiga, o'zaro hamkorlikning yangi yo'nalishlari va mexanizmlarini hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Muzaffara ABDIYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



IQLIM O'ZGARISHLARI OQIBATLARINI YUMSHATISH OMILLARI

Oliy Majlis Senatining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi hamda Jamoat xavfsizligi universiteti hamkorligida "Global iqlim o'zgarishlari va suv muammolari" mavzuida mahorat darsi tashkil etildi. Unda senator B. Alixonov iqlim o'zgarishi, uning salbiy oqibatlari, suv muammolarining yuzaga kelishi, uning oldini olish yuzasidan batafsil ma'lumot berdi.

Senator va hayot

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda iqlimning keskin o'zgarishi, sahralarning kengayishi, cho'llanishvayerdegradatsiyasi, maishiy va sanoat chiqindilarining tobora ortib borishi, atmosferaning zararlanishi, suv resurslari ifloslanishi va tanqisligi, o'rmonlar va bioxilmaxillikning kamayishi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammolarga aylanadi. Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida keng qamrovli ishlar ro'yobga chiqarilmoqda.

Mamlakatni barqaror rivojlantirish,

aholi hayoti va sog'lig'ining yuqori sifatini ta'minlash, ekologik xavfsizlik, umuman olganda, milliy xavfsizlik masalalari amalga oshirilayotgan islohotlarning eng ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda.

Global ekologik muammolar keskinlashgan sharoitda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni sog'lomlashtirishga qaratilgan qonunlar, qonunositi hujjatlari, davlat dasturlarining qabul qilinib, ularning ijrosini barqarorlikni ta'minlash borasida keng qamrovli ishlar ro'yobga chiqarilmoqda. Eng muhimi, bu jarayonda keng jamoatchilik vakillarining faol qatnashayotganligi

muammolar yechimida muhim ahamiyat kasb etayotir.

Shu kabi sa'y-harakatlarga qaramay qator ekologik muammolar hozirda ham saqlanib qolmoqda. Boz ustiga, yangidan-yangi ekologik tahdidlar paydo bo'lyapti.

Mahorat darsida suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, suv isrof bo'lishi va oqitqicha suv iste'molining oldini olish, soha va tarmoqlarda suv tejoychili texnologiyalarni qo'llashni rag'batlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanishni kengaytirish, chiqindini boshqarish tarmog'ini takomillashtirish, uni qayta ishlash texnologiyasini joriy etishni tezlashtirish, atmosfera havosi ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, biologik xilmaxillikni asrash zarurligi ham alohida aytib o'tildi.

Qolaversa, senator tomonidan ekologik xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor strategik yo'nalishlari xususida so'z yuritildi. Turli darajadagi davlat organlari va

tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning o'zaro ta'sirini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, boshqaruv qarorlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash tartibiga ekologik talabni kiritish, mamlakat miqyosida atrof-muhitning ifloslanish darajasini ekologik, gigiyena va sanitariya me'yorlarigacha kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash lozimligi ham urg'ulandi.

Aholining, ayniqsa, yoshlarning ekologik madaniyatini oshirishning yangi mexanizmlarini ishlab chiqish, suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, suv isrofining oldini olish, ekologik muammolarni hal etish hamda ekologik tahdidlarning oldini olishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, ekologik nazoratni kuchaytirish lozimligi qayd etildi.

"Xalq so'zi".

REKLAMA

"O'zsanoatqurilishbank" ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish (masofadan) to'g'risida

XABARNOMA

Hurmatli "O'zsanoatqurilishbank" ATB aksiyadorlari!

"O'zsanoatqurilishbank" ATB Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy manzili bo'yicha joylashgan (korporativ veb-sayti: www.sqb.uz, E-mail: info@sqb.uz), Sizga 2023-yil 30-noyabr kuni Toshkent shahri vaqti bilan soat 11:00 da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati http://evote.uz/. orqali bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi belgilanganligini ma'lum qiladi.

YIG'ILISH KUN TARTIBI: "O'zsanoatqurilishbank" ATBning 2024 — 2026-yillarda rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida;

"Tashkent City" Xalqaro ishbiarmonlar

Yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (http://evote.uz/. foydalangan holda 2023-yil 30-noyabr Toshkent vaqti bilan soat 10:00 da boshlanib

11:00 da to'xtatiladi.

Murojaat uchun telefonlar: 78-120-45-00 IP:13-30; (99894) 711-13-75.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 01.11 Topshirildi — 02.30

1 2 3 4 5 6

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1141.32 572 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; ko'itibiyat 71-259-74-53;

e'lonlar 71-259-74-55.

